AMALIY MASHG‘ULOTLARNI O‘QUV LOYIHA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI

Cho‘lponova Xadicha Toshbaevna-

Farmasevtika ta’lim va tadqiqot instituti,

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, xususan, amaliy mashg‘ulotlarni o‘quv loyiha texnologiyasi asosida tashkil etish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. O‘quv loyiha texnologiyalarini qo‘llash natijasida talabalarda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, nazariy bilan amaliyot birligini uyg‘unlashtirish hamda muammoli vaziyatlarni mustaqil tadqiq qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Tayanch iboralar: o‘quv loyiha, pedagogik texnologiya, ta’lim sifati, samaradorlik, mustaqil izlanish.

Kirish: Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakat taraqqiyotining barqarorligi, ta’lim tizimining mazmunan va uslubiy jihatdan qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar tez o‘zgarayotgan sharoitda davlat tizimi nafaqat bilim berish, balki mustaqil fikrlay oladigan, raqobatbardosh, muammolarni va yechim topishga qodir mutaxassislarni tayyorlash vazifasini ham bajarishi lozim. Shu tariqa ta’lim tizimiga O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy rivojlanish sohasida ustuvor yo‘nalish deb yondoshiladi. Ta’lim jarayonida talaba-yoshlarning mustaqil tadqiqotchilik, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik vazifalardan biri sifatida ekanligini ko‘rib chiqar ekanmiz, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy talablarga javob beradigan, saviyali va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichlarga ko‘tarish, ilg‘or tajriba va pedagogik texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni asosida “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” o‘qitish jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish, raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili: Rivojlangan mamlakatlarda ta’lim jarayonining samaradorligini 16 foizi-moddiy-texnik bazaning ta’minotiga, 20 foizi-resurslardan foydalanishga, 64 foizi esa-inson omiliga bog‘liq ekanligi e’tirof etilgan. YuNESKO tomonidan qabul qilingan “Oliy ta’limdagi pedagog kadrlar maqomi to‘g‘risidagi” tavsiyanomada o‘qitish jarayonining samaradorligi pedagogning tajribasi va pedagogik mahoratiga, kasbiy kompetensiyasi va shaxsiy fazilatlariga bog‘liq tarzda, ta’lim jarayoniga innovatsion yondoshuvni talab qilinadi. Pedagog o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalarni samaralisini tanlashi va ulardan foydalanish, hamkorlikdagi o‘qitish texnologiyasini ishlab chiqish va joriy etish, ijodiy faollik ko‘rsatish huquqiga ega. Pedagog o‘quv faoliyatini amalga oshirishda talabalarni sha’ni, ularning qadr-qimmati va shaxsini hurmat qilishi, amaliy mashg‘ulotlarni davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlariga muvofiq tarzda tashkil etishi, talaba-yoshlarning bilim darajasini oshirishda ularning aqliy, jismoniy va ruhiy rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishi maqsadga muvofiqdir[1].

O‘quv loyiha texnologiyalari ta’lim jarayonini real hayot bilan bog‘lash, nazariy bilimlarni amaliyotga yo‘naltirish va talabalarni mustaqil bilim olish jarayoniga jalb etish imkonini beradi. Ushbu texnologiya kasbiy va tayanch kompetensiyalarni shaklllantirish, ijodiy fikrlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Amaliy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘quv loyiha texnologiyasi asosida tashkil etish orqali talaba-yoshlarda amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, nazariya bilan amaliyot birligini uyg‘unlashtirish hamda muammoli vaziyatlarda zarur bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. O‘quv loyihaviy texnologiya - bu aniq maqsadga yo‘naltirilgan, uning natijaviy samaradorligi kafolatlangan holda, pedagogik faoliyatning mazmunini

ishlab chiqishga qaratilgan xatti-harakatlar mahsuli bo‘lib, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatiga asoslangan, aniq muammoni hal qilishga qaratilgan ta’limning faol metodidir. Bunda talaba-yoshlarning maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv loyihasi bo‘yicha axborotni izlash, yig‘ish, saralash asosida yakuniy mahsulotni taqdim etish etish orqali amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish ko‘zda tutiladi. O‘quv loyihaviy texnologiya ma’lum jarayon ishtirokchisi yoki ob’ektiga mo‘ljallangan muammolarni izlash, tadqiq qilish va yechish, natijani moddiy va intellektual mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan ta’limni tashkil qilish vositasidir. O‘quv loyiha texnologiyalarini pedagogika amaliyotiga nemis olimi M.Knoll fanga olib kirgan, uning izlanishlariga ko‘ra, “loyiha” tushunchasining paydo bo‘lishi XVI-asrga talluqli bo‘lib, italiyalik me’morlarni me’morchilikni o‘quv fani darajasigacha olib chiqishgani va o‘z faoliyatlarida kasbiy malakalarini namoyon etishga urinishlari bilan mashhur bo‘lishgan.

Tarixiy manbalarga ko‘ra XVIII asr oxiri XIX-asr o‘rtalariga borib muhandislik kasblarining paydo bo‘lishi natijasida o‘quv loyihasi dastlab Germaniya, Fransiya, Avstriya va Shveysariyadagi, so‘ngra AQShdagi texnika va sanoat maktablarida keng targ‘ib qilindi. O‘quv loyiha texnologiyalari didaktik vosita sifatida amaerikalik pedagoglar V. Kilpatrik, Ye.Kollings va Ye. Parxerstlarning ilmiy ishlarida rivojlantirildi, ular talaba-yoshlarning nafaqat faol o‘rganish faoliyatini, balki birgalikdagi hamkorlik faoliyatini amalda tashkil etdilar. O‘qitish jarayonidagi o‘quv loyiha ishi real hayotdan olingan muammoli vaziyat bo‘lishi va ushbu muammoning yechimi kichik guruhlarda fan yutuqlaridan foydalanib, mustaqil tadqiq etilishi va muayyan natijani qo‘lga kiritilishiga xizmat qilishi lozim[1].

Metodologiya: “Loyiha” atamasi ilk bor texnik sohada qo‘llanilgan bo‘lib, lotin tilida “projectus”- degan ma’noni anglatib, aniq qoidalarga asoslanib u yoki bu soha holatini qaytadan yaratishning asosiy g‘oyasini anglatadi. O‘quv mashg‘ulotlarini loyihalashtirish o‘qituvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning muammoni izlash, uni hal qilish bo‘yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil qilish,

loyiha bosqichlarini ketma-ket amalga oshirishdan to baholashgacha bo‘lgan jarayonda mustaqil harakat qilishini ta’minlovchi maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatidir. Ta’lim tizimida “O‘quv loyiha” texnologiyalarining quyidagi asosiy xususiyatlari mavjud: mustaqillik xususiyati -talabalar loyiha mavzusini va yechimini o‘zi tanlaydi; -amaliylik xususiyati -loyiha real hayotiy muammoni amaliy o‘rganishga asoslanadi; -universallik xususiyati - loyihani amalga oshirish bosqichlarining universal texnologik xaritasini mavjudligi bilan belgilanadi; - natijaviyligi - yakuniy mahsulot yoki xom-ashyoni ishlab chiqish,taqdimot qilish va uni xisobotini berish bilan amalga oshiriladi.

Ta’lim jarayonini loyihalash “g‘oya-maqsad-kutiladigan natija – taxmin kilish, bashoratlash - rejalashtirish” tizimiga asoslanadi. Bunday loyihalash moddiy buyum, qurollar, masalan: kompyuter texnologiyasi, oddiy ish qog‘ozi, qalamlar, marker, nusxa ko‘chirish va ko‘paytirish apparatlari va boshqa vositalar yordamida amalga oshiriladi. O‘quv loyihaviy faoliyatni yaratish uchun pedagog: - loyihani maqsadini belgilashi; - jarayonni bosqichlarini ketma-ketligini yoritishi; - maqsadga mos keladigan vazifalarni aniqlashi; - o‘quv materiali mazmunini qisqa va lo‘nda shakllantirish; - savol va topshiriqlar tizimini uslubiy shakllantirish; - jarayon yoki tadbirning kafolatlangan natijasini asoslash; -talabalarning o‘zlashtirish darajasini va ularning amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini xaqqoniy baholash qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Amaliy mashg‘ulotlarda “O‘quv loyiha” texnologiyasidan foydalanish talabalarning o‘rganayotgan muammolarni yechimini o‘zlari qidirib topishlari, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, ijodiy yondashgan holda xulosalar chiqarish imkoniyatlarini shakllantirsa, o‘qituvchining ish yuklamasini osonlashtiradi, talaba shaxsi va jamoaning uyushqoqolik darajasini rivojlantiradi, yangi bilimlarni o‘zlashtirishda sog‘lom raqobat muhitini tarbiyalaydi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini takomillashtiradi. Pedagog olim J.Bo‘ronov “Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari” kitobida: “.... hamkorlikdagi ta’lim, talaba, o‘qituvchi va ma’muriyat orasida do‘stona munosabatning ustuvorligi asosida sifatli ta’lim berish jarayonini vujudga keltiradi”

– deb yozadi. Olim ta’lim oluvchilar bilan sog‘lom va do‘stona munosabatlarni o‘rnatish, talaba va o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro hurmat mavjud bo‘lgan o‘qitish jarayonida partitsipativ asosdagi o‘quv muhiti qaror topishini ta’kidlaydi[1].

Muhokama va natija: O‘quv loyiha texnologiyaning muhim belgilarini ko‘rib chiqamiz:

- Muammoga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatini tizimli tashkil etishga oid o‘quv jarayonini yaratish;
- Muammoni yechish yo‘llarini mustaqil izlash va uni hal etishga yo‘naltirishda maslahatchi-pedagog muhitini yaratish;
- Haqiqiy hayot bilan ta’limning mustahkam aloqasini o‘rnatish.

O‘quv loyihasining xususiyatiga ko‘ra quyidagi turlari mavjud:

1. Izlanuvchanlik faoliyati xususiyatiga ko‘ra o‘quv loyihasi-tadqiq etish, ilmiy izlanish xususiyatidagi ishlarni bajarishni nazarda tutadi:

- Dolzarb muammoni olib chiqish;
- Tadqiqot maqsadining mavjudligi;
- Farazlar, vazifalarni aniqligi;
- Muammoni o‘rganish ususllari
- Axborotni yig‘ish va tahlil qilish;
- Tajriba o‘tkazish;
- Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bu loyiha turi aynan tibbiy ta’lim tizimida kasalliklarni aniqlashga, farmasevtikada dori-darmonlarni o‘rganishda foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Ijodiy loyihalar -hamkorlik faoliyatida ishlab chiqilgan yangi mahsulotni(ijodiy xisobot, ko‘rgazma, ishlab chiqarish xnalarini dizayni, videofilm, kitoblar, almanax, kompyuter dasturlar va boshqalar) taqdimoti amalga oshiriladi.

3. Axborotli loyihalar – o‘quv jarayoni va boshqa buyurtmachilar uchun muhim bo‘lib, tanlab olingan, tahlil qilingan, tizimlashtirilgan va umumlashtirilgan axborotlar(turli manbalardan monografiya, maqolalar, so‘rovnomalar)ni yig‘ishga yo‘naltirilgan. Masalan: dorixonadagi savdoning tashkiliy madaniyati haqida

videofilm yoki so‘rovnoma tayyorlash mumkin. Bu loyiha turi aniq fan yuzasidan o‘qituvchining buyurtmasi asosida amalga oshiriladi.

4. Ishlab chiqarish(texnika)ga oid va ijtimoiy loyihalar- bunda ishlab chiqarishning ijtimoiy tomonlari(texnik nosozlik, avariyaviy holatlar, boshqaruv tizimi, uy-joy sharoiti va unga muhtojlik kabi muammolar)ni hal etish nazarda tutiladi.

“O‘quv loyiha” texnologiyasi fanlararo bog‘liqlik xususiyatiga ko‘ra:

1. Bir fanli - bunda aniq fan yoki mavzuning bo‘limlari ajratib o‘rganiladi Masalan: Psixologiya fanining “Shaxsning individual psixologik xususiyatlari” mavzusini o‘rganishda temperament, xarakter, qobiliyat va ijtimoiy ustanovkalar mavzulari yoki temperamentga yondoshuvlarni kengroq o‘rganish joiz bo‘lsa: Krechmer-Sheldon nazariyasi, Gippokrat nazariyasi, I.P.Pavlov nazariyasi va Ibn Sino nazariyasi kabi mavzular ajratilib guruhlarga beriladi.

2. Qisqa muddatli, o‘rta muddatli va uzoq muddatli loyihalar- bu bir haftadan bir oygacha davom etadigan loyiha bo‘lib, uy vazifasi, mustaqil ish shaklida bajariladi. Bunda qo‘yilgan vazifaga erishish asnosida talabalar tomonidan muhim va aniq foydalanuvchiga mo‘ljallangan biror bir yakuniy mahsulot(taqdimot, yo‘riqnoma, tavsiyanoma, anamnez, videorolik) ko‘rinishida rasmiylashtirilgan, muammoni hal qilish uchun “tadqiqotchilarning” belgilangan ketma-ketlikdagi xatti-harakatlari majmuasini tavsiflaydi[2].

“O‘quv loyiha” texnologiyasi bir necha bosqichlarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi:

1. Tayyorgarlik bosqichi- loyihaga kirishish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish ishlari auditoriyada o‘qituvchi rahbarligi asosida amalga oshiriladi.

2. Loyihani bajarish bosqichi -auditoriyadan tashqarida, yakka tartibda yoki guruh shaklida amalga oshiriladi.

3. Yakuniy bosqich- auditoriyada loyiha taqdimoti shaklida amalga oshirilib, talabalarning loyiha mahsuloti va loyihaviy faoliyati baholanadi.

Talabalarning quyidagi o‘quv loyihaviy faoliyati bosqichlarini ko‘rib chiqamiz:

1-bosqich- muammoni izlash yoki shakllantirish. Muammo manbasi quyidagilar bo‘lishi mumkin: ishlab chiqarishga sayohat va uning faoliyatini tahlili, yechilmagan muammolarni aniqlash; o‘qituvchi tomonidan beriladigan aniq ijtimoiy va ishlab chiqarish vaziyatlarining bayoni, o‘quv jarayonini takomillashtirishga oid aniq vazifalar(uslubiy va didaktik vositalar, yo‘riqnoma, tavsiyanoma, savollar, testlar banki, videofilm yoki videoroliklar)niishlab chiqish. Bu bosqichda o‘qituvchining asosiy vazifasi- talabalarni muammoni anglab yetishga olib chiqish, uni yechishga bo‘lgan motivatsiyani berish va o‘quv loyihaning mahsulini-aniq natijani olishda aniq maqsadni belgilash yo‘llarini ta’kidlash xisoblanadi.

2-bosqich- ijodiy guruhlarni shakllantirish. Loyiha turiga qarab laboratoriyalarda mulyajlar, maketlar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

3-bosqich-o‘quv loyiha ishini rejalashtirish: axborot manbalarini yig‘ish, aniqlash, saralash va tahlil qilish.

4-bosqich-bunda asosiy talab turli manbalardagi axborotlarni taqqoslab o‘rganish, so‘rovnomalar o‘tkazish, kasallik belgilarini kuzatish va ularning tahlili amalga oshiriladi.

5-bosqich- olingan ma’lumotlar tahlili, kuzatuvlar natijasining hamkorikdagi muhokamani amalga oshiradilar.

6-bosqich- o‘quv loyiha mahsulotini rasmiylashtirish va taqdim etish. Natijalar tayyorlanadigan mahsulotning xususiyatidan kelib chiqib, og‘zaki, yozma, amaliy tarzda amalga oshiriladi.

7-bosqich- bunda ish natijalarini tahlil qilish va baholash amalga oshiriladi. Loyiha mualliflari o‘z faoliyatlarining natijasini xisobot ko‘rinishida olib chiqishadi. Loyihani sifatini o‘qituvchi va boshqa guruhlardan tayinlangan ekspert-talabalar baholaydilar. Ekspert-talaba o‘quv loyiha texnologiyasi va uning baholash

mezonlari bilan to‘liq tanishtiriladi. Ekspertning bahosi adolatli, haqqoniy bo‘lishi jamoa oldida uqtiriladi va bahoga hech kim e’tiroz bildirmasligi ta’kidlanadi.

Baholash mezoni va ko‘rsatkichlari kredit-modul tizimining ko‘rsatkichlari asosida amaliy mashg‘ulotning bahosidan kelib chiqqan holda taxminiy belgilanadi: Loyiha mahsuloti uchun eng yuqori ball- 50 ball; Xisobot uchun – 25 ball; Loyiha taqdimoti uchun – 25 ball.

O‘quv loyiha mahsulotining tarkibiy tuzilishi quyidagi tarkibga ega bo‘lishi lozim: Titul varag‘i. Ishtirokchilar ro‘yxati va vazifalari. Muammo. Maqsad. Annotatsiya. Ma’lumotli-axborotning mazmuni va mohiyati. Hisobot. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Ta’lim jarayonida o‘quv loyiha texnologiyalaridan foydalanishning afzalligi: o‘qituvchining mehnatini osonlashtiradi, talabalarda ma’suliyat hissini oshiradi, guruhlararo raqobatbardoshlik kuchaytiradi, talabalarda o‘z-o‘zini baholash darajalari oshadi, erkin fikrlash, o‘z fikrini himoya qilish ko‘nikmalari shakllantiradi va ijodkorlik, mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantiradi hamda hamkorlik faoliyatining negizida bir-birini hurmat qilishni, tinglash texnikalarini o‘zlashtiradilar. Amaliy mashg‘ulotlarni loyihalashtirish- real natijaga olib keluvchi , qat’iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o‘z ichiga oluvchi muammoni o‘zgartiruvchi, oldindan kafolatlangan, tizimli va samarali faoliyatni amalga oshirishni ko‘zda tutiladi. Bunda talabalarning amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish qonuniyatlarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir[3].

Xulosa va takliflar: Xulosa qilib aytganda, amaliy mashg‘ulotlarni o‘quv loyiha texnologiyasi asosida tashkil etish ta’lim sifatini oshirish, talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ularni mustaqil faoliyatga tayyorlashda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyani qo‘llash ta’lim jarayonini mazmunan boyitib, talabalarning ijodiy va tahliliy fikrlash qobidiyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, o‘quv mashg‘ulotlarida o‘quv loyiha texnologiyalarini qo‘llash talabalarda malaka talablarida belgilangan ta’limning mazmuni, maqsadi va tarkibiy tuzilishi asoslarini

takomillashtirishga, o‘quv faniga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishga, mustaqil va ijodiy izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda kasbiy faoliyatda zarur bo‘ladigan malakalarni amaliyotga tadbiq eta olish ko‘nikmasini shakllantirishga zamin yaratadi.

REFERENCES:

1. YuNESKO “Oliy ta’limdagi pedagog kadrlar maqomi to‘g‘risidagi” tavsiyasi. Toshkent. 2023.
2. Raximov O.D., Mustafaev Q.O. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Toshkent. Fan va texnologiya nashriyoti. 2013. B-200.
3. Muslimov N.A., Mirsolieva M.I. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik. Toshkent. 2016.